

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил 2 сон



“HAYOT – BUYUK QADRIYAT SIFATIDA”

Komilova Gavharoy Ro'zimovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, “Til nazariyasi” kafedrasи o'qituvchisi

r_gavharoy@mail.ru

Annotation: Aksiologik leksikaning xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan maqol, matal va hikmatli so'zlar, iboralardagi ifodasi xalqning ana shu tushunchaga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan aksiolinguistik tadqiqotlar mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Maqolada hayot - oliv qadriyat hamda hayot qadriyatlar sistemasi sifatida o'zbek tilidagi maqollar misolida aksiolinguistik tahlil qilingan. Zero, maqollar oddiygina hikmatli so'z emas. Ularda xalqning hayotga bergen bahosi, hayotiy tajribasi mujassam bo'ladi. Har bir maqol o'zi tegishli zamonnning bahosini belgilaydi.

Keywords: aksiologiya, aksiolinguistika, qadriyat, baho, subyektiv baho, til, aksiologik yondashuv, aksiologik leksika, paremiya, maqol, matal, aksiologema, hayot.

ЖИЗНЬ КАК ВЫСШАЯ ЦЕННОСТЬ

Komilova Gavharoy Ruzimovna

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы по иминам Алишер Навои

преподаватель кафедры «Теория языка»

Аннотация: Выражение аксиологической лексики в пословицах, поговорках и баснях, являющихся образцами фольклора, определяет отношение людей к этому понятию. С этой точки зрения аксиолингвистические исследования показывают актуальность темы. В статье проводится аксиолингвистический анализ узбекских пословиц, отражающих жизнь как систему ценностей и как высшую ценность. Пословицы — это не просто мудрые слова. Они олицетворяют жизненный опыт людей и их понимание о жизни. Каждая пословица определяет ценность соответствующего времени.

Ключевые слова: аксиология, аксиолингвистика, ценность, оценка, субъективная оценка, язык, аксиологический подход, аксиологическая лексика, аксиологема паремия, пословица, жизнь

LIFE AS THE HIGHEST VALUE

Komilova Gavharoy Ruzimovna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature after named Alisher Navoi,
Lecturer Department of of Language Theory

Annotation: The expression of axiological vocabulary in proverbs, sayings and fables, which are samples of folklore, determines the attitude of people to this concept. From this point of view, axiolinguistic studies show the relevance of the topic. The article provides an axiolinguistic analysis of Uzbek proverbs that reflect life as a system of values and as the highest value. Proverbs are not just words of wisdom. They personify the life experience of people and their understanding of life. Each proverb determines the value of the corresponding time.

Keywords: axiology, axiolinguistics, value, evaluation, subjective evaluation, language, axiological approach, axiological lexicon, paremia, axiologema, proverb, life.

Antropotsentrik burilish tilshunoslikda aksiologiya bilan bog'liq aksiolingvistika fanining shakllanishiga olib keldi. Mazkur fan insonning haqiqatga munosabati, uning tushunish qobiliyati, dunyoning qiymat tuzilishi va turli xil shakllardagi qadriyatlarni o'zida mujassam etgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, qadriyatlarni nafaqat madaniyatning tarkibiy qismi va shaxsning ma'naviy hukmronligi, balki idrok obyekti sifatida tushunish, insonning baholash va baholashga bo'lgan ehtiyojini ifoda etish usuli sifatida ekanligi mavzuning dolzarbligini anglatadi. Shuning uchun baholash vositalarini aniqlash va tavsiflash hamda ma'lum ma'nolarini belgilash, fandagi muammolarini hal qilishda ma'lum qoidalarini o'rnatish zamonaviy aksiologik tilshunoslikning eng muhim maqsadidir. Zero, til dunyo va insonni baholash vositasi sifatida qadriyatlarni ko'rsatadigan vositalarni o'z ichiga oladi [1].

Qadriyatlar inson faoliyatining turli ko'rinishlarida ifodalangan real obyekt va hodisalarning jamiyat va shaxs uchun ahamiyatini ifodalovchi ideallikni o'zida aks ettiradi.

Qiymat kategoriyasi - tilning qiymat-semantik makonining asosida paydo bo'lgan lingvokulturologik kategoriyadir. Madaniy tilshunoslik va madaniyatshunoslik kabi fanlar doirasida tadqiqot olib boradigan olimlar qadriyatlarni subyektiv va obyektiv, nisbiy va absolyut kabi guruhlarga bo'lishgan [2].

Aksiologik leksikaning xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan maqol, matal va hikmatli so'zlar, iboralardagi ifodasi xalqning ana shu tushunchaga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Aksiolingvistikada qadriyat va antiqadriyat aksiologema tushunchasi bilan ifodalanadi. Bu terminni ilk bor maqollar semantikasini tekshirish asosida Jukov tilshunoslikka olib kirdi: "Aksiologema aksiologik nuqtai nazardan ma'lum bir qadriyatni yoki antiqadriyatni belgilaydigan aforizmlar va so'zlar uchun umumiy semantik maydon hisoblanadi [3]. Tadqiqotlarda aksiologik frazeologiyani tadqiq qilish mobaynida qadriyat va antiqadriyat maqomidagi aksiologik diadalar ("aksiologik juftliklar") ni klassifikatsiyalash masalasi o'rta ga tashlandi. Bunday tasniflarni aksiologik frazeologiyaga doir barcha tadqiqotlarda uchratish mumkin.

Qiymat insonning ma'lum bir davrdagi dunyoga munosabati bilan, shuningdek, ma'lum bir jamiyatga xos dunyoqarash bilan ajralmasdir.

Inson doimo o'zini, jamiyatni, ijtimoiy vogelikni baholaydi, aloqa jarayonida turli xil vositalar bilan o'z munosabatini bildiradi. Baholashning ko'plab talqinlari orasida - kommunikativ (ma'qullash - rad etish), hissiy (yoqimli - yoqimsiz), umumiy (yaxshi - yomon), ratsional (foydali - zararli) kabi turlari keng tarqalgan.

Maqollarda millatning o'y-fikrlari ifodalangan bo'ladi. Maqollar munozara yoki biror narsani dalillash shart emas, ularda hukm o'qiydigan temir haqiqat mavjud. Maqollar oddiygina hikmatli so'z emas. Ularda xalqning hayotga bergan bahosi, hayotiy tajribasi mujassam bo'ladi. Har bir maqol o'zi tegishli zamonning bahosini belgilaydi.

Inson hayoti o'z ichiga ruxiy, kognitiv, estetik va etik, iqtisodiy qadriyatlarni qamrab oladi. Chunki odamzot umri davomida ularning har biriga duch keladi, ijtimoiy munosabtaga kirishar ekan narsa-hodisalarning ahamiyatini, qiymatini belgilab lisonda ifodalaydi. Inson bahosi lisonda ifodalanan ekan, juz'iy elementlar ham nazardan chetda qolmaydi. Tabiatdagi tabiiy hodisa yoki narsa-predmet ijyimoiy munosabatga kirishib baholangandan keyin tajriba orqali ma'lum qadriyat yoki antiqadriyatga aylanadi.

Inson faoliyati davomida to'plangan bilim, tajriba va tasavvurlar uning ongida aks etar ekan, bu mental reprezentatsiya jarayonida milliy-madaniy faoliyatning aks etishi yuz beradi. Bu haqda N. F. Alefirenko: "Tilda olam manzarasida aks etuvchi, ma'lum madaniyat vakillari uchun muhim bo'lmish obyektlar ifodalanadi, lisoniy ongda esa o'sha lingvomadaniyat uchun ahamiyat kasb etuvchi unsurlar muhrlanadi" [4] deb yozadi. Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilida barqarorlashgan dunyo haqidagi tasavvurlar, dunyoni anglash va bo'laklash usullarining jami bo'lib, u mazkur til sohiblarining barchasi uchun odatiy, tabiiy va majburiydir [5]. Shuning uchun ham olimlar milliy-madaniy qadriyatli manzarani maydon sifatida tasavvur etish mumkinligini ta'kidlab, uning yadrosini milliy kognitiv baza tashkil etadi, degan xulosaga keladi [6]. Yuqorida fikrlarni hisobga olib, biz ham milliy qadriyatlarning obrazli maydoni sifatida maqollarni tahlilga tortdik. Chunki maqollarda xalqning barcha turmush tarzi, ichki dunyosi va qarashlari obrazli tarzda ifodalanib, o'zida milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Hayot konsepti o'zbek tilida *hayot*, *tirikchilik*, *turmush*, *tiriklik*, *umr* singari ot leksemalar bilan ifodalansa, frazeologizm va paremiyalarda, badiiy adabiyotda *peshona* hamda *qismat*, *taqdir* obrazlari bilan gavdalanadi. *Peshonaga yozilganidan ayrılma yor* kabi qo'shiqlar shular jumlasidan. Hayotning o'zi nima? Hayotda qanday yashash lozim? kabi savollar qadimiy savollardan hisoblanadi. Hayot mavzusiga, uni tahlil qilishga va anglashga faylasuflar, shoirlar va yozuvchilar ko'p marta qo'l urushgan. Hayotga baho berilganda o'sha davrdagi muhit (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) e'tiborga olinadi.

"Xush durur Bog'u koinot guli, Barchadin yaxshirog' hayot guli" A.Navoiy, "Murodingni hayoting ichra axtar, Ki mavhum ilm bo'lma axgar" Anbar Otin, "Tajribalar bizning abadiy muallimimiz" Gyote, "Hayot – harakat, harakatsizlik – o'limdir" Levis Morris, "Tiriklik jismning idrok va harakatga ega bo'lmos'i demakdir" Ibn Sino va hakozo. Demak, Navoiyda hayot eng oliy qadriyat sifatida tasvirlangan bo'lsa, Anbar Otin maqsad bilan yashash hayot qonuni ekanligini ta'kidlaydi. Aynan harakat, tajriba, idrok G'arb va Sharq falsafasida hayotiylikni ta'minlovchi kuch sifatida baholangan va bu bir qator maqollarda ham aks etgan.

Rozin hayot haqidagi madaniyatshunoslikdagi turlicha baholanadigan to'rtta vaziyatni ajratib ko'rsatdi: 1) hayot ijobiy qiymat sifatida, ba'zan eng yuqori qadriyat sifatida (hayot hamma narsa, o'lim ham hech narsa);

2) hayot salbiy qiymat sifatida: hayot azob-uqubat kabi);

3) hayot inson uchun tushunib bo'lmas koinot singari;

4) ikki tomonlama hayot darajasi (ikki dunyo mavjud bo'lgan madaniyatga xos xususiyat: xudolar va odamlar) [7].

Dyuring zarar / foyda, kasallik / sog'liq, pasayish / ko'tarilish, zaiflik / kuch, sustlik / kuch, hayotni rad etish / hayotni tasdiqlash kabi oppozitsiyalar orqali hayotning qahramonlik-optimizm xususiyatiga e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi pessimizmni hayotga tahdid deb biladi. Nitsshe fikricha mavjud bo'lgan hamma narsa hayotdir [8].

Hayot tushunchalari tahlilida barcha aksiologik fikrlarni uchta blokka birlashtirilish mumkin:

1) hayot eng oliy qadriyat sifatida (hayotdan qimmatroq narsa yo'q);

2) hayot – qurbanlik sifatida. Inson kimdir yoki nimadir uchun o'limga qodir bo'lgan holatlar mavjud. Bunday holatlar inson hayotdan ko'ra qadrli deb biladigan qadriyatlarini keltirib chiqaradi;

3) hayot - qadriyatlar tizimi (sistema) sifatida.

Frazeologiyadagi hayotning aksiolistik ifodasi bir qator ishlarda tahlil qilingan [9]. Ushbu tadqiqotlarda quyidagi xulosalar berilgan: rus tili lisoniy manzarasida “inson – hayot” munosabatlari o’ziga xos xususiyatlari ega; hayot harakatchan, faol, mustaqil. Bu insonga ta’sir o’tkazib, uni harakatga keltiradi, o’zgartiradi, unga yordam beradi; *hayot - sudya, hayot – ustoz, hayot - tajovuzkor* deb baholanadi. Inson, asosan, passiv, hayotga bo’ysunadi, faqat hayotni ayblashi yoki undan shikoyat qilishi mumkin. Biroq, zamonaviylik insondan ko’proq faollikni talab qilmoqda, va bu asosan, publisistik kontekstlarda o’z ifodasini topgan: *hayot sherik, hatto qul* sifatida qabul qilinadi [10].

Lisoniy shaxs ongida kognitiv, iqtisodiy, estetik va etik bahoning shakllanib tilda, aynan maqollarda ma'lum bir milliy obrazlar bilan aks etishi o’ziga xos obrazli maydonni yuzaga keltiradi.

Maqolamizda “inson-hayot” munosabatlarini yoritishda inson ruxiyati bilan bog’liq qadriyatlar ifodalangan maqollarni tahlilga tortdik. Bu qadriyatlar motivatsion xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqollarni quyidagi semantik maydonlarga bo’lib o’rganish mumkin: **Inson - hayotda eng oliv qadriyat:** *Odam – oltindan qimmat; Odamning qo’li gul; Inson – gavhari qobil; Odam olamning oltin toji.* Tiriklikning o’zi baxt. Chunki inson har qanday ma’naviy boyliklarning ijodkoridir. Xuddi shuning uchun ham insonning ongi va faoliyatiga bog’liq bo’lmagan, undan tashqarida turgan bironqa qadriyat bo’lishi mumkin emas. Zero, Navoiy dunyoqarashi va qadriyatlari negizida ham insoni “sharif” ulug’lanadi:

Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading

Hayotda inson hamisha yaxshi niyat bilan yashashi lozim: *Yaxshi niyat – yarim davlat; Umid o’lmas, rizq kamimas.* **O’z o’rniga ega bo’lishlik - tiriklik:** *O’lik bo’lib go’rda yo’q, Tirik bo’lib to’rda yo’q; O’lik bo’rini it tishlamas.*

Maqsud Shayxzoda ham:

Umrlar bo’ladiki, o’ligida tirikdir,

Odamlar bo’ladiki, tirigida o’likdir, -

degan misralari ham yuqoridagi maqollar mazmuniga teng.

Rizq-nasiba Ollohdan: *Har kim nasib qilganini olar; Yugurganniki emas, buyurganniki; hayot – eng oliv hakam:* *Tadbirning yengi bilan, Taqdirni yashirib bo’lmas; Toshga soch, toleyingdan ko’r; Turnani tuzoq bilan tutib bo’lmas; Tuya qochib yukdan qutilmas; Taqdirning balosi ko’p, Saqlasa panosi ko’p.* **Bir kam dunyo:** *Tuyog’i butun tulpor yo’q, Qiyog’i butun tulpor yo’q;* **Qismat – betakror:** *Har kimga - bir uy, bir go’r.* **Hayot harakatdan iborat:** *Tirik bandaga tinim yo’q; Oz yesang, ko’p yashaysan, Mehnat qilsang, ko’p oshaysan; Turmush – urunish; Tuxumni ko’rmaganga qora g’arg’a ham tovuq.* **Hayot uchun kurashmoq zarur:** *Daryoga ot solmasdan avval kechuvini top; Jumadan umiding bo’lsa, Payshanbadan harakat qil; Zamona kelmay qirindan, G’amingni ye burundan; Olisdan otilgan qopqon To’g’ri mo’ljalga yetar; Ot olmay, oxur tuzat; Yelli kun yo’rt, Yog’li kun yot.* Kurash hayot sharoiti yoki ehtiyoji, agar kurash tugasa, hayot ham tugaydi. Hayotda ma’no va maqsad bo’lmasa, qiyinlashib boraveradi.

Taqdirning o’z qo’lingda: *Taqdirli ayol -tadbirli ayol; Taqdirning ishini tadbir buzolmas, Tadbirning ishini taqdir buzolmas; Tadbirga taqdir hayron.* Hayotda omon qolish, kuch-qudratning o’sishiga intilish – insoniyat uchun intuitiv va instinct bo’lib, uning qiymatiga tahdid - nigelizmdir. Hayotga mazmun beradigan narsa qadriyatlardir.

Til egalari lisoniy manzarasida: taqdir – oliv hakam. Ya’ni, hayot Olloh tomonidan berilgan ne’mat. Inson qismat yetaklagan tomon yo’l bosib boraveradi. Shu bilan birlashtirishda, inson eng oliv qadriyat sifatida namoyon bo’ladi. Shuningdek, oldiga qo’ygan maqsad va harakatlariga bilan taqdirni o’zgartiradigan kuch egasi sifatida maqollarda gavdalanadi. Zero, *Tadbirga taqdir hayron* singari qiymat egalari fikrimiz isbotidir.

Hayot haqidagi insonning ma’naviy qarashlari nutqda voqealanar ekan, xalqning diniy, milliy qadriyatlarni kategoriyalashtirish bilan amalgalashdi. Hayotga baho berishda, albatta, inson omili birlamchidir; inson ijtimoiy hodisalarga baho berar ekan, tabiiy ravishda qiymat shakllanib, milliy ongda tafakkur etiladi. Demak, inson-ijtimoiylik baho-qiyomat-qadr-milliy ong-til sxemasida inson onggida mavjud bo’ladi, narsa-predmet, tabiat, zoomorf, o’simliklar va ijtimoiy tasavvur obrazlari orqali verballashib, natijada milliy qadriyatlarning obrazli semantik maydonini yuzaga keltiradi. Lisonda baho hodisasi orqali predmetlar, voqe-a-hodisalar, subyektlar tanlanadi, analiz va sintez qilinib, baho beriladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Богданова Л.И. Оценки и ценности в зеркале словарей русского языка. Russian Journal of Linguistics Вестник РУДН. Серия: ЛИНГВИСТИКА: 2017 Vol. 21 №4. С. 732.
2. Попова Т.Г., Бокова Ю.С. Категория «ценность» как сущностная характеристика языка. Вестник ЮУрГУ, № 2, 2012. С.72.
3. Байрамова Л.К. Пословицы в «Аксиологическом фразеологическом словаре русского языка: словаре ценностей и антиценностей»//Вестник Новгородского государственного университета. 2014. № 77. С. 10-12.
4. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Москва: Флинта, Наука, 2010. С. 43.
5. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: “Mumtoz so’z”, 2017. 143-b.
6. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Москва: Флинта, Наука, 2010. С. 104.
7. Краснобаева-Чёрная Ж.В. Аксиологический феномен жизни во фразеологии: жизнь как ценность и жизнь как система ценностей. Вестник ВГУ. серия: лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. № 4.С.31-35. 8. Краснобаева-Чёрная Ж.В. Аксиологический феномен жизни во фразеологии: жизнь как ценность и жизнь как система ценностей. Вестник ВГУ. серия: лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. № 4. С.32.
9. Краснобаева-Чёрная Ж.В. Аксиологический феномен жизни во фразеологии: жизнь как ценность и жизнь как система ценностей. Вестник ВГУ. серия: лингвистика и межкультурная коммуникация. 2015. № 4.С.31-35.
10. Иланова О.А. концепт «жизнь» в русской языковой картине мира: лингвокультурологический и лексикографический аспекты. АВТОРЕФЕРАТ (дисс. кан. фил. наук.) Санкт-Петербург, 2005. С. 28.

МУНДАРИЖА

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ

01.00.00

ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИЕ НАУКИ

PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

1	Краевая задача для параболо - гиперболического уравнения с тремя плоскостями изменения типа в бесконечной призматической области Умарова Г. Б	3
2	Ҳисоблаш усуллари"дан масофавий назорат ўтказиш Имомов А., Настинов С., Ахмедов Н	10
3	Fizika tajriba darslarida zaryadlarning ajralishini elektrometrik kuchaytirgich yordamida tekshirish Sattorov M. R	16
4	Представление решения одной динамической системы на плоскости Тухтасинов М . Ибайдуллаев Т. Т . Кушаков Х. Ш	20
5	Иккинчи тартибли тўла дифференциалли тенглама интегралловчи кўпайтувчисини аниқлаш Уликов Ш.Ш, Турсунова Э.Ғ	27

КИМЁ ФАНЛАРИ

02.00.00

ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

CHEMICAL SCIENCES

6	Закономерности пространственно-временного распределения концентрации элементов в атмосферных аэрозолях городов зеравшанской долины Хошимхужаев М. М, Мамажонов С. Б	33
7	Complex thermal analysis of iron(iii) based heterobimetal oxo-acetates with the products of some heterocyclic ligands Abdulloev Sh.Kh	39
8	Mevalarni energiyatejamkor vakuum-sublimatsion quritish qurilmasida dielektrik mikroto'lqinlardan foydalanib quritish Meliboyev M. F, Mamatov Sh. M, Ergashev O.K	46
9	Полианилиин асосидаги композицион полимер сорбентларнинг сорбцияланиш кинетикасини ўрганиш Тўхтаев Ф. С, Негматов С. С, Негматова К. С, Каримова Д. А	52
10	Ўзбекистонда ўсуви <i>lamiaceae</i> оиласига кирувчи <i>pereta l.</i> , <i>lophanthus l.</i> ўсимликларининг кул таркибини элемент анализи ва таққослаш Мамаджонова М.Ю, Усманова Н.Қ, Абдуллаев Ш.В	59
11	Сурхондарё вилояти сангардак дарёси сувларидағи торий-232 радионуклидини радиометрик усулда аниқлаш Холмуродов М.П, Тураев Х.Х, Эшқараев С. Ч, Абдуқодиров Ш.АСафаров А.М	63
12	Олеогеллар синтези ва уларни нефть чиқиндиларини тозалашда қўллаш. Хусанова М. Ф, Тиллаев А.Т, Бекназаров Х.С Джалилов А.Т.....	69

**БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
BIOLOGICAL SCIENCES**

13	Айрим балик касалликларига карши курашиш Рахманов Д. О	74
14	Африка қўноғи истиқболли озуқабоп экин Юнусов О. Х	76
15	Устюрт платоси чигирткаларининг (acridoidea) фенологик ривожланиш жиҳатлари Медетов М. Ж, Базарбаева Д. О , Раджапов М Я	81
16	Оролбўйи тупроқларнинг регионал хусусиятлари ва деградация жараёнлари Исмонов А. Ж, Қаландаров Н.Н, Мамажанова Ў. Х	88
17	Ўзбекистон флорасида тарқалган <i>dracoscephalum l.</i> туркуми турларининг маълумотлар электрон базаси Абдуллаева Н.С, Ортиқова Л. С, Алмаматов Ж. М	95
18	Влияния изолятов <i>fusarium solani</i> на культивируемые сорта хлопчатника в Узбекистане Раджапов Ф.С, Салахутдинов И. Б, Муллахунов Б. Т, Глухова Л. А, Камбурова В. С, Буриев З.Т, Эгамбердиев Ш.Ш.....	100
19	Фарғона водийси қуруқлик моллюскаси <i>monacha carthusiana</i> турида конхологик белгиларнинг ўзгарувчанлиги Умаров Ф.У, Пазилов А. П	106

**ТЕХНИКА ФАНЛАРИ
ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ
TECHNICAL SCIENCES**

**БИОЛС
БИОЛС
BIOLOC**

20	Қушлар халақитлари таъсирида самолётлар қатновида юзага келадиган хавфлар тахлили Тожибоев И.Т, Азимжонов У.А	111
21	Қишлоқ ҳўжалик юкларини ташишни ташкил этиш ва уларнинг хавфсизлигини таъминлаш Эшанбабаев А.А, .Исматуллаева Д.А, Купайсинов Д.Х	115

**ТАРИХ ФАНЛАРИ
ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ
HISTORICAL SCIENCES**

22	Шайх Нуриддиннинг Амир Темур вафотидан кейин мовароуннахрда юз берган сиёсий жараёнларда тутган ўрни ҳақида Бегимқулова Л.М	119
----	---	-----

**ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ
ECONOMIC SCIENCES**

23	Саноат диверсификацияси ва экспортни ривожлантириш Арипов О.А, Тўраев А. А	124
----	---	-----

09.00.00

**ФАЛСАФА ФАНЛАРИ
ФИЛОСОФИЕ НАУКИ
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

24	Madaniyat va shaxs – birgalikda moslashuv Sunatov D.H	130
25	Берунийнинг табииййун оқими тарафдори сифатида борлиқ муаммосини ўзига хос тарзда ўртагаташлани Тошпўлатова Н. С	136
26	Ўрхун-енисей тошбитиклари тарихимиз талқини сифатида Назаров Н. А	141
27	Античные концепции истины Панжиев С	146
28	Фалсафий меросимиз тадқиқотларда Ортиқов О.И	150
29	Глобаллашув шароитида миссионерликнинг олдини олиш усуллари ва воситалари Обломурадова Х. Н	155
30	Фаннинг қадриятга айланиб боришида интелектуал фаолиятнинг ижтимоий-фалсафий функцияси Соипова М. К	160
31	Оммавий маданият” ва унинг оқибатларига қарши мафкуравий иммунитетни шаклантириш Тожибоева Д.О	165
32	Қўқон хонлиги меъморчилиги Тожибоев У.У	171
33	Шарқ ва ғарб фалсафий тафаккурида инсон муаммоси талқини Тожибоев У.У, Хошимов С С	175
34	Ўзбекистоннинг трансчегаравий маданий алоқаларини ривожлантиришда туризмнинг роли ва аҳамияти Бойматов Ф.З	179
35	Темурийлар даврида илм-фан ва маданият ривожи Ўрозов Ш З	184
36	Талаба-ёшларнинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш муаммолари Худайбердиев А.К	188

10.00.00

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES**

37	Ўзбек тилидан инглиз тилига таржимада муқобилликка эришишда лингвомаданий ёндашув (таржимада лакуналар мисолида) Досбаева Н Т	193
38	“Lison Ut-Tayr” ma’naviy yuksalishga chorlovchi badiiy falsafiy asar Sayfiddinova N Abdullayeva G	198
39	O’zbek xalq maqollarida “baho” konsepti	203

40	Aminova A O	
	"Hayot – buyuk qadriyat sifatida"	
	Komilova G.R	208
41	Жорж Р.Р. мартиннинг "a game of thrones" (Тахтлар ўйини) ва "a clash of kings" (Кироллар тўқнашуви) асарларида архаизмлар	
	Насрiddинов Д. А	213
42	Semantic characteristics of terminological words in the language for special purposes	
	Zakirova H A	217
43	Ingliz va O'zbek tillarida vaqt noaniqligini ifodalovchi so'z turkumlari	
	Mehmonova Y	220
44	Olamning lisoniy manzarasi ingliz, o'zbek tillari frazemalari ifodasida	
	Tursunova N F	224
45	Ulug' mutafakkirlar va avliyola beshigini olamga tanitgan mutafakkir	
	Qo'chqorova Sh R	228
46	Using games and innovative technologiesin the english language classroom	
	Vakhidova F S	232
47	"Тўрт улус тарихи"да тарихий ривоятлар таҳлили	
	Абдуллаева М.Д	238
48	Ўхшатиш конструкцияли иборалар хусусида	
	Абдуллаев А Х, Йўлдошева Д.А	244
49	Сўзларни туркумлашда морфемаларнинг ўрни	
	Исақов З С	248
50	Функционально-семантические типы оптативных предложений в русском и Узбекском языках	
	Камалов У А	256
51	Credit transfer system is the basis for training competitive specialists in Uzbekistan	
	Mirzayev M Kurbonov N, Karimov O	261
52	XX-XXI асрларда Ўзбек асарларини инглиз тилига ўтириш муаммолари	
	Кенджаева Г.Ф	266
53	Қорақалпоқ тилида ойконимларнинг шаклланишида ойконимик индикаторларнинг ўрни	
	Курбанов М Д	274
54	Маданиятлараро мулоқот ва таржима	
	Убайдуллаев Ш.Н, Раҳманқурова Д, М	279
55	Нашрий нусхалар қиёси	
	Жўраева X. Б	285
56	Аллюзия как элемент интертекстуальности в произведении рика риордана "Percy Jackson and the lightning thief"	
	Мирзаева А III	289
57	Агиографик асарлар тадқиқига аксиологик ёндашув	
	Ширинова Р.Х , Тўхтасинова Н Б	300
58	Прагмалингвистические особенности комплимента	
	Ҳамроева Н Н	307

59	The use of linguistic corpus in teaching a foreign language Тојібовев G Sh, Rashidova Sh	312
60	Й. В. Гёте “фауст” асаридағи ҳикматлар таржимаси хусусида Улканов А.А	317
61	Фориш шевасининг айрим лексик хусусиятларига доир Набиев Р	322
62	Idiosyncrasy of jay parini's biographical novel“the last station” Khajieva F.M	327
63	Гендер ва адабиётшунослик аёллар насри мисолида Мұхаммедова Х.Ә	333
64	Абдулла Қаҳҳор тахаллусларининг лексик-семантик ва вазифавий хусусиятлари хусусида Низомова Ш	337
65	Поэтик шакллар тузилишидаги янгиланишлар Алдашева Ш.Ж	341
66	Хожа Аҳмад Яссавий ва “девони ҳикмат”нинг муаллифлик масаласи Исмоилов Қ.А	346
67	Шоҳнома” ва адабий таъсир масалалари Тўрабоева Ҳ.У	351
68	Factors that have influenced on khudoyberdi tukhtaboyev 's adventure novels Qo'chqorova M	355
69	“Uyat” konsepti tadqiqi To'xtasinova N.R.	361

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ
13.00.00 **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ**
PEDAGOGICAL SCIENCES

70	Talabalarning intelektual imkoniyatlarini rivojlantirish Badalova S. I	365
71	Курашчиларнинг организмига кластерланган маҳсус тайерлов техник машқларининг таъсири Шукurov M. Н	370
72	Педагогика коллеки ўқувчиларида коммуникатив компетенцияларнинг таркибий қисмлари Азизов О.Ә	374
73	Професионал таълим ўқитувчисини тайёрлашнинг долзарб масалалари Махсудов П.М	379
74	Бошланғич математик таълимнинг инновацион тараққиёти ва тизими янгиланишларнинг ўзига хос жиҳатлари Abdusamatov A. S	384
75	Бошланғич синф ўқувчиларида ҳуқуқий онгни ривожлантиришнинг педагогик технологияси Раупова М.М	388

76	Ingliz tili darslari samaradorligini oshirishda multimediyali electron darsliklardan foydalanish tizimini rivojlantirish. Valiyev Sh.A	396
77	Техникаолий таълим муассасаларида ахборот технологиялар ёрдамида талабалар касбий компетенцияларни шакллантиришнинг назарий асослари Адилов Б. Б	401
78	Текисликдаги ва фазодаги комплекс сонларнинг геометрик маъносини ўқитишини методик такомиллаштириш Баратов Ф.Ш	407
79	Построение учебно-тренировочного процесса квалифицированных тяжелоатлетов с учетом типа соревновательной подготовленности Баязитов К.Ф	410
80	Халқ оғзаки ижоди воситасида бошланғич синф ўқувчиларининг ижтимоий фаоллигини ривожлантириш босқичлари ва шакллари Мақсудов У.Қ	418
81	Texnologiya fani darslarining turlari, tiplari va ularga mos keluvchi pedagogik texnologiyalarni tanlash Kadirova N.M	424
82	Соғломлаштириш тадбирлари орқали бошланғич синф ўқувчиларини жисмонан тарбиялаш Исмоилов Т	431
83	Pedagogika fanlarini o'qitishning kredit modulli tehnologiyalarga takomillashtirish Djumanqulov A A	434
84	Fakultetlararo mutahassiliklarda elektron o'qitish jarayonini takomillashtirish (informatika va unga turdosh fanlar misolida) Husanov Q.O., Yunusova G.N, Kahharov R. T	440
85	Инновацион таълим технологияларининг назарий-методологик асослари Косимов А.С., Раимов F. F., Тураева Д. А.....	443
86	Узлуксиз таълим тизими босқичлари физика курсларида “абсолют қора жисмнинг нурланиш қонунлари” ни ўрганишдаги изчилиллик Саматов F. Б, Саттаркулов К. Р, Уябоева Н.А	449
87	Табиий фанларни инглиз тили фани билан интегратив ёндашув асосида ўқитишининг аҳамияти Турсунбоева М А	454
88	Виртуал коммуникатив майдон самарали мулоқот воситаси сифатида Халилова Р.Р	457
89	Евклид алгоритми ёрдамида сонли ифодаларнинг бўлинишини исботлаш методикаси Хонқулов У.Х	462
90	Сложное предложение в русском и узбекском языках Набиев Ш А, Хасanova M.A	468
91	Ўқувчиларда технологик операцияларни бажариш кўникма ва малакаларини ҳосил қилишда схемаларни ўрни	471

92	Кулмаматова Х. А	
	Особенности эффективного использования метода обучения «case –study» в высшей школе	
	Каюмова Ё. К, Умурзакова Х	475
93	Внедрение компьютерных технологий на уроках русского языка в современных школах	
	Касимова М. Н	479
94	Мышление как предмет психолого-педагогического исследования	
	Замилова Р. Р	483
95	Таълим-тарбия жараёнида талабалар онгида ҳаётий мақсадларни қарор топтиришнинг аксиологик ёндашуви	
	Юлдашев Ж.А.	487
96	Ақлли таълим ахборот жамияти ривожланишининг асосий парадигмаси	
	Расулов С. Ш.	492
97	Мактабгача таълим ташкилотлари тарбиячиларининг касбий компетенциясини такомиллаштириш муаммолари	
	Хушназарова М.Н., Қосимов А.	498
98	Бўлажак ўқитувчилар учун жисмоний тарбия машғулотларида соғлом турмуш тарзи маданиятини шакллантиришнинг амалий-методик имкониятлари	
	Махкамов А.Ю.	503
99	Медиаматнлар устида ишилашнинг айрим технологик усуллари	
	Хужамкулов А. П.	509
100	Ўқитувчининг шахсий комптентлигини ривожлантиришнинг айрим масалалари	
	Болтаев А.А.	518